



O'ZBEKISTON HUDUDIDAGI TOSH DAVRI JAMOALARI XO'JALIGINI ARXEOLOGIK MANBALAR ASOSIDA TADQIQ ETISH TAJRIBASI

Mavlanov Quvonchbek Salohiddin o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Tarix fakulteti,

70220601 – Etnografiya, etnologiya va antropologiya mutaxassisligi

bitiruvchisi

Annotatsiya

Ushbu tezisdagi O'zbekiston hududidagi tosh davri (paleolit, mezolit, neolit, eneolit) jamoalarining xo'jalik faoliyati arxeologik manbalar asosida tadqiq etilgan. Ishning maqsadi — turli davrlarga oid manzilgohlar (Selengur, Ko'lbuloq, Teshiktosh, Obirahmat, Obishir, Machay, Joytun, Kaltaminor va boshqalar) materiallarini qiyosiy tahlil qilish orqali xo'jalik shakllarining bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlanish qonuniyatlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqot natijasida paleolit davrida to'liq o'zlashtiruvchi xo'jalik xarakteri, mezolitda ovchilik-termachilik-baliqchilikning uyg'unlashgan tizimi, neolitda o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish jarayoni, eneolitda esa metall (mis) bilan tanishuv fonida tosh qurollarning ahamiyati saqlanib qolgani kabi xulosalar asoslangan. Shuningdek, xo'jalik faoliyatining ijtimoiy tuzilma va dunyoqarash shakllanishiga ta'siri masalasi ham yoritilgan.

Kalit so'zlar: tosh davri, xo'jalik faoliyati, paleolit, mezolit, neolit, eneolit, ovchilik, termachilik, dehqonchilik, chorvachilik.

O'zbekiston hududi qadimiy madaniyatlar rivojlanish markazlaridan biri bo'lib, tosh davri jamoalarining xo'jalik faoliyatini o'rganish insoniyatning ilk iqtisodiy-madaniy qadamlarini tushunish uchun muhim manba hisoblanadi. Yurtimiz Rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "tarixiy merosni asrab-



avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir"¹. Shu bois mamlakatimiz hududidagi tosh davri jamoalari xo'jaligini yagona tizim sifatida o'rganish nafaqat mintaqaviy, balki umumjahon ibtidoiy jamiyat tarixini yoritishda ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon arxeologiyasida tosh davri jamoalarining ovchilik-termachilik va dehqonchilikka o'tish jarayonlari yetarlicha chuqur o'rganilgan bo'lsada, har bir mintaqaning o'ziga xos tabiiy-iqlim sharoiti va resurs bazasi mavjudligi sababli, aynan O'zbekiston hududidagi tosh davri jamoalari xo'jaligining bosqichma-bosqich tadrijiy rivojlanishi yaxlit tizim sifatida hamon to'liq umumlashtirilmagan. Bu esa turli davrlarga oid manzilgohlar materiallarini qiyosiy tahlil qilish orqali xo'jalik shakllarining mintaqaviy o'ziga xosligini aniqlash zaruratini keltirib chiqaradi.

Tadqiqotning maqsadi – O'zbekiston hududidagi paleolit, mezolit, neolit va eneolit davri manzilgohlaridan topilgan arxeologik materiallar asosida jamoalarning xo'jalik faoliyat turlarini aniqlash, ularning davrlar osha tadrijiy rivojlanish qonuniyatlarini asoslashdan iboratdir.

Tadqiqot natijalari quyidagilardan iborat:

Paleolit davri manzilgohlari (Selengur, Ko'lbuloq, Teshiktosh, Obirahmat) materiallari tahlili shuni ko'rsatdiki, bu davr xo'jaligi to'liq o'zlashtiruvchi xarakterga ega bo'lgan. O'. Islomovning Selengur g'or-makonidagi tadqiqotlariga ko'ra, qo'l cho'qmorlari va qirg'ichsimon qurollar hayvon go'shtini maydalash hamda terisiga ishlov berish maqsadida qo'llanilgan², R.X.Sulaymonovning Obirahmat materiallari bo'yicha statistik tahlili esa bu

¹Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 29.

²Исламов У. И. Итоги и перспективы изучения пещерной стоянки Сель-Унгур // Проблемы взаимодействия природы и общества в палеолите Средней Азии. – Ташкент, 1988.





yerda ovchilikning yetakchi xo'jalik turi bo'lganini tasdiqlaydi³. Teshiktosh makonidagi dafn marosimi bilan bog'liq A.P.Okladnikov topilmalari xo'jalik faoliyati bilan bir qatorda ilk ma'naviy tasavvurlar shakllanganidan dalolat beradi⁴.

Mezolit davriga oid Obishir, Machay va Qo'shilish manzilgohlari materiallari ovchilik, termachilik va baliqchilikning uyg'unlashgan xo'jalik tizimini tashkil etganini ko'rsatadi. O'. Islomovning fikricha, kamon-o'qning ixtiro qilinishi ov jarayonini tubdan o'zgartirib, ovchilik xo'jaligida haqiqiy inqilobiy siljish yasadi⁵.

Neolit davri (Joytun, Kaltaminor, Hisor, Sazag'on madaniyatlari) o'zlashtiruvchi xo'jalikdan ishlab chiqaruvchi xo'jalikka o'tish bosqichi sifatida aniqlandi. M.Jo'raqulov va M.Isomiddinovning ta'kidlashicha, kulolchilikning kashf etilishi neolit davri jamoalari hayotida tub burilish yasab, oziq-ovqatni saqlash va tayyorlashning asosiy vositasiga aylandi⁶.

Eneolit davrida metall – mis bilan tanishuv xo'jalikda yangi bosqichni boshlab bergani, biroq mis kamyob va qimmat xomashyo bo'lganligi sababli tosh qurollarning kundalik xo'jalikdagi ahamiyatini saqlab qolgani asoslandi. A.Asqarovga ko'ra, mis qurollarni ishlab chiqarish ko'lamining ortishi erkaklar mavqeining kuchayishi va patriarxal munosabatlarning shakllanishiga olib keldi⁷, A.Sagdullayev esa Zarafshon va Amudaryoning quyi oqimidagi eneolit manzilgohlarining qisqa muddat yashab o'tilganini chorvachilik va

³Сулейманов Р. Х. Статистическое изучение культуры гота Оби-Рахмат. – Ташкент, 1972.

⁴Окладников А.П. Тешикташский неандерталец. – Москва: Издательство «Наука», 1949.

⁵Islomov O'. O'rta Osiyo mezolit davri muammolari. – Toshkent: Fan, 1980.

⁶Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand: Zarafshon, 1999.

⁷Asqarov A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994. – B. 24.





dehqonchilikka bog'liqlik hamda hududlararo xomashyo almashinuvi bilan izohlaydi⁸.

Xo'jalik faoliyatining ijtimoiy tuzilmaga ta'siri ham aniqlandi: J.Kabirov va A.Sagdullayevning fikricha, Teshiktosh makonidagi dafn marosimi jamoa a'zolarida o'lim bilan bog'liq dunyoqarashning shakllanganini va ularning o'zlarini alohida ijtimoiy jamoa sifatida anglay boshlaganini ko'rsatadi⁹.

Xulosa

Xulosa qilar ekanmiz, fikrimizcha, tadqiqot o'z oldiga qo'ygan maqsadga erishdi: O'zbekiston hududidagi tosh davri jamoalari xo'jaligi bosqichma-bosqich – to'liq o'zlashtiruvchi xo'jalikdan qisman, so'ngra to'liq ishlab chiqaruvchi xo'jalikka qarab – izchil rivojlanib borgani asoslandi. Bu jarayon tabiiy-geografik sharoit, mehnat qurollari texnologiyasining takomillashuvi va ijtimoiy tuzilmadagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq holda kechgani aniqlandi. Olingan natijalar O'zbekiston tosh davri arxeologiyasini boyitish bilan bir qatorda, Markaziy Osiyo mintaqasi ibtidoiy jamiyatlari taraqqiyot qonuniyatlarini qiyosiy o'rganish uchun ham asos bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. – Б. 29.
2. Исламов У. И. Итоги и перспективы изучения пещерной стоянки Сель-Унгур // Проблемы взаимодействия природы и общества в палеолите Средней Азии. – Ташкент, 1988.

⁸Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004. – B. 55.

⁹Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – B. 31.



3. Сулейманов Р. Х. Статистическое изучение культуры грота Оби-Рахмат. – Ташкент, 1972.

4. Окладников А.П. Тешикташский неандерталец. – Москва: Издательство «Наука», 1949.

5. Islomov O'. O'rta Osiyo mezolit davri muammolari. – Toshkent: Fan, 1980.

6. Jo'raqulov M., Isomiddinov M. O'rta Osiyo kulolchiligi tarixidan. – Samarqand: Zarafshon, 1999.

7. Asqarov A. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1994.

8. Sagdullayev A. Qadimgi O'rta Osiyo tarixi. – Toshkent: Universitet, 2004.

9. Kabirov J., Sagdullayev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.